



TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022 - yil 1 - fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	110 933 108,2 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	106 554 109,2 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022 yilda)	1 310 81,4 %

Mamlakatimizda qulay ishbi-larmonlik muhitini yaratish va tad-birkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobiy o'zgarishlar amal-ga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tad-birkorlik subyektlarini davlat ro'y-xatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, dav-lat ro'yxatidan o'tkazish va hisob-ga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilin-moqda. Bu esa, aholi hamda xori-jiy investorlarning o'z shaxsiy biz-nesini yo'lga qo'yish va rivojlan-tirish uchun muhim omil bo'lib xiz-mat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4

80 030



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

3 494



Oilaviy korxonalar

468



Unitar korxonalar

12 152



Xususiy korxonalar

242



Aksiyadorlik jamiyatlari


356



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022 - yil yanvar oyida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil yanvar oyida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **0,5** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




10,4 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




12,7 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




6,1 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **11,0** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **10,0** foizga pasaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)


9



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1-fevral holatiga ko'ra 3,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 mingtaga yoki 2,9% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 mingtaga yoki 3,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 40 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12 taga yoki 23,0 % ga kamayganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 yil 1-fevral holatiga ko'ra 8,1 mingtani tashkil etib, ulardan 7,9 mingtasi yoki 96,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,6 mingtaga yoki 9,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022 - yilning yanvar oyida 87 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar oyida, birlikda)



Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12

	Jami	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 456	593	863
Qozog'iston Respublikasi	808	314	494
Ozarbayjon Respublikasi	176	59	117
Ukraina Respublikasi	131	64	67
Qirg'iz Respublikasi	136	50	86
Tojikiston Respublikasi	105	40	65
Turkmaniston Respublikasi	64	23	41
Belarus Respublikasi	67	32	35
Armaniston Respublikasi	28	16	12
Moldova Respublikasi	17	6	11

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 18,3 %, Qozog'iston Respublikasi 10,1 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,1 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,2 % ga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	7 945	3 024	4 921
tumanlar:			
Uchtepa	259	83	176
Bektemir	185	95	90
Yunusobod	943	382	561
Mirzo Ulug'bek	1 039	405	634
Mirobod	1 364	409	955
Shayxontohur	548	245	303
Olmazor	432	212	220
Sirg'ali	267	118	149
Yakkasaroy	1 306	437	869
Yashnobod	634	279	355
Yangihayot	112	55	57
Chilonzor	856	304	552

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod – 1 364 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,2 %), Yakkasaroy – 1 306 ta (16,3 %), Mirzo Ulug'bek – 1 039 ta (13,1 % hamda Yunusobod tumanlarida 943 tani (11,9 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining eng kam qismi Uchtepa – 259 ta (3,3 %), Bektemir 185 ta (2,3 %) hamda Yangihayot 112 tani (1,4 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2022 - yil 1 - fevral holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,8 %), Yunusobod – (12,6 %), Mirzo Ulug'bek – (11,4 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (8,8 %), Yakkasaroy – (8,5 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod - (8,1 %), Sirg'ali - (5,0 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,1 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil yanvar oyida, birlikda)

2022 yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,5 %), Yunusobod – (12,4 %), Yashnobod – (10,8 %), Mirzo Ulug'bek – (10,5 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,2 %), Yakkasaroy – (8,2 %), Uchtepa – (7,9 %), Mirobod – (7,7 %), Sirg'ali – (6,0 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,4 %) tashkil etgan.







2022 - yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (10,0 %), Sirg'ali – (2,5 %), Yunusobod – (20,0%), Mirzo Ulug'bek – (7,5 %), Uchtepa – (15,0 %), Olmazor – (5,0 %), Shayxontohur – (12,5 %), Yangihayot – (2,5 %), Chilonzor – (7,5 %), Yakkasaroy – (7,5 %), Mirobod – (0,0 %) hamda Bektemir tumanlarida (10,0 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022 – yilning yanvar oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
tel.: 71 203-88-31